



## NOKULAY EKOLOGIK MUXIT TA'SIRIDA O'TKIR PNEVMONIYA BILAN OG'RIGAN BOLALARDA REABILITATSIYA TADBIRLARINING SAMARADORLIGINI O'RGANISH

**Salaeva Xolida Matyusupovna**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch  
filiali Pediatriya va neonatologiya kafedrasida  
assistenti*

**Dolzarlighi.** Zotiljam kasalligi dunyodagi bolalar o'limining birinchi eng muhim sababidir-har yili u besh yoshgacha bo'lgan 1,8 million bolani hayotdan olib ketadi, ulardan 98% dan ko'proq qismirivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, JSST ma'lumotlariga ko'ra, zotiljam kasalligi butun dunyodagi bolalar o'limining asosiy infeksiyon sababidir, u dunyodagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida barcha o'lim holatlarining 15% iga sabab bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda shifoxonadan tashqari zotiljam kasalligidan o'lim ko'rsatkichi darajasi past va 12% dan oshmaydi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda har yili 5 yoshgacha bo'lgan 5 millionga yaqin bola ushbu kasallik tufayli hayotdan ko'z yumadi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarda ekologik buzilishlar sababli kasallangan balalarning soni ko'payotganligi, kasalliklarni og'iroq o'tishini ta'kidlab o'tish lozim. Xozirgi kunda orol bo'yi xududida atrof- muxitni ximik, toksik birikmalar, atmosfera xavosi, ichimlik suvi, tuprokning ifloslanishi dalil sifatida o'z isbotini topgan.

Ekologik noqulay hududlarda yashovchi bolalarda o'tkir bronx-o'pka kasalliklari faqat ularga xos bo'lgan o'ziga xos kechishga ega. Bu respirator kasalliklari asoratli kechishga ega hamda kasallik tez-tez qaytalanadigan bolalar hisoblanadi. Bu bolalar xavf guruhini tashkil qilib, nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida e'tiborni jalb etadi [Uchaykin V.F., 2009, Baranov A.A.2003].

Erta yoshli bolalarning kasallik strkturasida o'tkir va surunkali bronx -o'pka kasalliklari bronxitlar, pnevmoniyalarni davolash va profilaktik chora – tadbirlarini olib borish sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bug'inida dolzarb vazifalardan biri bo'lib xisoblanadi. Ayniksa nafas yulining bu kasalligi bolalarda yuldosh kasalliklar ( raxit, kamkonlik, oziklanishning oksil –energetik etishmovchiligi, gipovitaminozlar, gelmentozi, allergik kasalliklar) bilan birga kechganida tez-tez kaytalanishi, chuziluvchan shaklda kechishi va bolalarning immun tizimini susaytirishi mumkin. Nafas yullari kasalliklarining erda yoshdagi bolalarda ko'p uchrashi bola nafas a'zolarining anatomo- fiziologik xususiyatlari, bolaning immunobiologik xossalariga bog'liqdir.(Azgamova SH.A 2006 ).



**Tekshiruv maksadi.** O‘tkir pnevmoniya bilan og‘rigan bolalarda reabilitatsiya tadbirlarining samaradorligini urganish.

**Tekshiruv materiallari.** Tekshiruv Xorazim viloyati Urganch shaxrida joylashgan № 3- sonli oilaviy poliklinikada 2022-2023 yillarda olib borildi. O‘tkir pnevmoniya tashxisi quyilgan 6 oydan – 3 yoshgacha bulgan 60 nafar bolalar kuzatuv ostida bo‘ldilar. Bolalarning 22% ( 37,3%) nafarida gelmentoz 14 ( 22,8%) nafar bolalarda kamqonlik, 12% ( 19,2%) nafar bolalarda atapik dermatit, 8 ( 13,7%) nafarida raxit, 7 (12,6%) nafar bolalarda oziklanishning oksil energetik etishmovchiligining engil darajasi kuzatilgan. Kasallik bu bolalarda chuzuluvchan kechishi, tez-tez qaytalanishi bilan kechgan. Reabilitatsiya tadbirlariga parhez saklash, organizmini chiniktirish, fizioterapevtik muolajalardan ultra binafsha nurlanish , massaj, elektrofarez muolajasi va vitaminoterapiya olib borish kiritilgan.

**Olingan natijalar.** Olib borilgan reabilitatsiya tadbirlaridan sung tekshiruv natijalari shuni kursatdiki, bemorlarda obstruktiv belgilar sezilarli darajada kamaygan, o‘pkada nafas utkazilishi yaxshilangan. Bolalarning o‘sinh va rivojlanishi JSST jadvali buyicha baxolanganda ijobiy natijalarga erishilgan. Kondagi gemoglobin mikdorining sezilarli darajada oshganligi kuzatilgan. Olib borilgan reabilitatsiya tadbirlaridan so‘ng kasallikning qaytalanishi va retsidivlanishi kamaygan, bolalar tez sog‘aya boshlagan.

**Xulosa.** Shunday qilib, mavjud yuldosh kasalliklarning o‘z vaqtida aniqlanishi va davo choralarining reabilitatsiya tadbirlari bilan birga olib borilishi o‘tkir bronx- o‘pka kasalliklarining asoratsiz kechishiga va qayta kasallanish xolatlarini oldini olib, tez sog‘ayshiga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev R.B., Duschanov SH.B., Matkarimova D.S., Musaev M.R., Xamidova G.S., Abdullaev I.R. Aralskiy krizis: problemy ekologicheskoy kultur i zdorovya. — Urgench, 2012. — 116 s.
2. Aznabaeva L.F. Immunologicheskie osobennosti bolnx s tyajeloy formoy vnebolnichnoy pnevmonii i ix prognosticheskaya znachimost / L.F. Aznabaeva, V.I. Nikulicheva, L.S. Kozreva // Sitokin i vospalenie. - 2013. - Tom 9, № 2. - S. 52-56.
3. Alibaeva K.M., Berdiyarova H.A., Muxamedjanova N.K., Maymakova A.M., Nuraxova A.D. Analiz kolichestvennogo opredeleniya urovnya S-reaktivnogo belka i prokalsitonina u patsientov s infektsionnoy patologiyey//Vestnik Almatinskogo gosudarstvennogo instituta usovershenstvovaniya vrachey.-2015.-Vip.2, Tom 3(120).-S.257-262.



4. Andreev A.A., Suxochev E.N. Lokalny gemostaz posle endovaskulyarnx vmeshatelstv.//Molodejny innovatsionny vestnik. 2017. T. 6. № 1. S. 168-169.
5. Bakradze M.D., Gadliya D.D., Rogova O.A., Xoxlova T.A., Tatochenko V.K. O problemax diagnostiki i lecheniya pnevmoniy u detey //Pediatricheskaya farmakologiya.-2015.- Tom 12.- № 3.-S.354-359.
6. Baleva L.S., Sipyagina A.E. Ekologicheskaya pediatriya - aktualnaya problema sovremennosti. Ros vestn perinatol i pediatr 2020; 65:(6):6-11.
7. Barskaya M.A., Terexina M.I., Kuzmin A.I. Differensirovanny podxod v taktike lecheniya legochnoplevralnx form detsruktivnx pnevmoniy u detey.// Mejdunarodnyy jurnal prikladnyx i fundamentalnyx issledovaniy. 2015. № 12-6. S. 1042–1045;
8. Bondarenko. V. A. Vliyanie ekologicheski neblagopriyatnx faktorov na rasprostranennostyu strukturu i osobennosti techeniya nefropatiy u detey. Avtoreferat., diss k.m.n.- g. Stavropolya, 2016-S14-15.
9. Busoedov A.V. Vliyanie sinteticheskogo peptida pri ojogax u krus na gemostaz v mikrokoagulyasionnom teste.//V sbornike: Materialy IV s'ezda anesteziologov-reanimatologov Zabaykalya sbornik nauchnyx trudov. FGBOU VO "Chitinskaya gosudarstvennaya meditsinskaya akademiya". 2017. S. 14-17.
10. Vasileva E.I., Shevsov D.A., Mizernitskiy YU.L. Zabolevaemost i klinicheskaya xarakteristika pnevmoniy u detey // material Kongressa po boleznyam organov dxaniya. - Moskva, 2014. - S. 125.
11. Vliyanie upravlyaemoy umerennoy gipotermii na gemostaz u novorojdyonnx s gipoksicheski-ishemicheskoy, ensefalopatiey./Filippov.E.S.,Gomellya.M.V., Zarubin A.A., i dr.//Klinicheskaya laboratornaya diagnostika. 2017. T. 62. № 12. S. 745-749.
12. VOZ. Informatsionnyy byulleten №331 (noyabr 2018g.). – URL: <http://www.who.int/mediacentre.factsheets.fs331.ru>